

2/2024,
mart-
aprel
(№ 00070)



QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Ravshanov Abdisolom Dusiyorovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

<https://orcid.org/0009-0008-7937-1184>

abdisalom7205@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a11

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini innovatsion faoliyat orqali barqaror rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar, bilim va innovatsiyalarni o‘zlashtirish natijasida qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish bazasini texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan raqobatbardoshligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jaligi, innovatsiya, innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish, bilim, oziq-ovqat, raqobat, raqobatbardoshlik.

ПУТИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОДУКЦИИ

Равшанов Абдисалам Дусиёрович

КарИЭИ, «Инновационная экономика» доцент кафедры, к.э.н.

Аннотация

В данной статье обоснованы факторы, влияющие на устойчивое развитие сельского хозяйства через инновационную деятельность, технологическую, техническую и организационно-экономическую конкурентоспособность производственной базы в сельском хозяйстве в результате освоения знаний и инноваций.

Ключевые слова. Сельское хозяйство, инновации, инновационная деятельность, производство, знания, продукты питания, конкуренция, конкурентоспособность.

WAYS FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE AND INCREASED COMPETITIVENESS OF PRODUCTS

Ravshanov Abdisolom Dusiyorovich

KarIEI, “Innovative Economics” Associate Professor, Faculty of Natural Sciences, Ph.D

Abstract

This article substantiates the factors influencing the sustainable development of agriculture through innovation, technological, technical, organizational and economic competitiveness of the production base in agriculture as a result of the development of knowledge and innovation.

Key words. Agriculture, innovation, innovative business, production, knowledge, product nutrition, competition, competitiveness

Kirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish ta‘minlanmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida, shu jumladan qishloq xo‘jaligida innovatsion jarayonlarning faollashuvini ta‘minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish zarur. Bu tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ichki bozorlarimizni to‘ldirish va qishloq xo‘jaligining eksport salohiyatini yuksaltirishga imkon yaratadi.

Ushbu masalalarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli [1] va 2021 yil 3 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-sonli Farmonlarida alohida e‘tibor qaratilgan[2].

Jahon oziq-ovqat bozorlarida mustahkam o‘rin egallash ko‘p jihatdan bozorga chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi bilan bog‘liq. Hozirgi sharoitda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari ularning tashqi bozorlardagi xaridorligi hamda yashovchanligini ta‘minlashning eng asosiy shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining bozorda egallagan o‘rni mustahkamligi ularning ishlab chiqargan mahsulotlari raqobatbardoshligi hamda raqobatlasha olish imkoniyatlari bilan o‘lchanadi.

Raqobatbardoshlik bozorda taklif etilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. Mahsulotning iste‘mol va qiymat ko‘rsatkichlari yig‘indisi unga tijorat muvaffaqiyatini ta‘minlagan taqdirdagina u raqobatbardosh hisoblanadi. Raqobatbardosh mahsulot – o‘zining sifat va ijtimoiy-iqtisodiy belgilari bilan xuddi shunday boshqa mahsulotdan manfaatli tarzda ajralib turuvchi tovardir.

Bugungi kunda jahon oziq-ovqat bozorlariga o‘z mahsulotlarini eksport qiluvchi tovar ishlab chiqaruvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini baholay olish va to‘g‘ri aniqlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Raqobat muammosi bugungi kunda eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Chunki ichki va tashqi bozorlarda raqobat muhiti kundan-kunga kuchayib, raqobatlashish chegarasi firmalararo raqobatdan tarmoq, mamlakatlar va hududlar doirasigacha kengayib ketdi.

Keyingi yillarda raqobat nazariyasi bilan jahonning ko‘pgina taniqli olimlari shug‘ullanib kelmoqda, ularning ichida amerikalik iqtisodchi Maykl Porterning raqobat nazariyasiga qo‘shgan hissasi eng beqiyosdir va u bu sohada eng yirik olim sanaladi.

M. Porter tomonidan tarmoq ichidagi raqobat darajasini aniqlashda sohasida taklif qilingan instrumentlardan biri – bu 1979 yilda u tomonidan ilgari surilgan besh kuch modelidir. M. Porterning fikricha, raqobat darajasiga nafaqat bevosita raqobatchilarning hatti-harakatlari, balki firmaning o‘rab turgan tashqi muhiti ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Raqobat darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi beshta asosiy omil mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat [3, 44 str.]:

1. Bozorda yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishi xatari.
2. Xaridorlarning bozordagi hokimiyati.

3. Bozorda o‘rinbosar tovarlarning paydo bo‘lishi xatari.
4. Resurs bilan ta‘minlovchilarning bozordagi hokimiyati.
5. Bozorda mavjud bo‘lgan raqobatchilar o‘rtasidagi raqobat kurashi.

Maykl Porterning raqobat nazariyasida ilgari surilgan g‘oyalar bozor konyunkturasi va raqobat muhitini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistondan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilish bilan shug‘ullanuvchi yoki bu sohaga endi kirib kelayotgan tadbirkorlar uchun jahon oziq-ovqat bozorlarini o‘rganishda Porterning raqobat nazariyasi nazariy-uslubiy baza bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini innovatsion boshqaruvi samaradorligi masalalari bo‘yicha muammoning umumiy tomonlari iqtisodchi olimlarimiz M.Q.Pardayev, R.X.Ergashev, N.S.Xushmatov, T.X.Farmonov, Q.A.Choriyev, ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Ularning ishlari xo‘jalik yuritishning bozor sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samarali yuritish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shdi.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardayevning ilmiy tadqiqot ishida iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo‘liga o‘tishda iqtisodiyotning agrar sektorida to‘planib qolgan muammolarni, balki ushbu tarmoq oldida turgan asosiy vazifalarni ham hal etish zarurligi bilan bog‘liq [4] ekanligi ta‘kidlangan bo‘lsa, R.X.Ergashevning ilmiy tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni rivojlanishning bilim va innovatsion yo‘lga izchil o‘tkazish asosida uni barqaror iqtisodiy yuksaltirish, ushbu strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘ini zamon talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texnik - texnologik asosda rivojlantirish to‘g‘risida fikr bildirilgan [5].

Yana bir iqtisodchi olim N.S.Xushmatovning ilmiy tadqiqot ishida agrar sektorni rivojlantirishning innovatsion boshqaruvi shu bilan birga hozirgi vaqtda iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish va uni rivojlanishning innovatsion yo‘liga o‘tkazish vazifalarini hal etish zarurligini hisobga olgan holda mazkur tarmoqdagi innovatsion faoliyatni faollashtirish sohasidagi ko‘plab muammo va masalalarni hal etish yo‘llari to‘g‘risida fikr bildirilgan [6].

Professor T.X.Farmonovning fikriga ko‘ra agrar sektorni rivojlanishning innovatsion yo‘liga o‘tish sharoitida qishloq xo‘jaligini boshqarish samarali tizimini shakllantirishning boshqaruvga nisbatan institusional va sinergetik yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan, boshqaruvning murakkab obyekt sifatida agroiqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, boshqaruvning asosiy metodologik tamoyillariga asoslangan, ko‘proq moslashtirish yo‘li bilan boshqarish modellarini qo‘llashga yo‘naltirilganligi bilan izohlaydi [7].

Taniqli iqtisodchi olim Q.A.Choriyevning ilmiy tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatini rejalashtirish agrar sektorning rivojlanishini innovatsion boshqaruvi samaradorligi bo‘yicha fikr bildirilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslash, omilli tahlil va qiyosiy tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganlaridek, “Oziq-ovqat ishlab chiqarish bo‘yicha Osiyo davlatlari yetakchi hisoblansa ham, lekin

paradoks shundaki, ochlikdan qiynalayotgan dunyo aholisining yarmidan ko‘pi Osiyoda yashamoqda. Shu sababli oziq-ovqat ishlab chiqarishning barqaror tizimlarini va uni yetkazib berishning optimal zanjirini shakllantirish kerak”[9].

Shu munosabat bilan mamlakatimizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon agrar va oziq-ovqat bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovasion faoliyat qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur omildan imkon qadar ko‘proq foydalanish mamlakatimizda agrosanoat majmuining barqaror rivojlanishini ta‘minlashning yagona yo‘lidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jadallashib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning innovasion yo‘liga jadal o‘tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘ini zamon talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texnik-texnologik asosda rivojlantirish lozim. Aks holda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishdan ortda qoladi va o‘zining raqobatbardoshligini ta‘minlay olmaydi.

Hozirgi sharoitda bilim va innovasiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur omillardan imkon qadar ko‘proq foydalanish mamlakatimizda agrosanoat majmuiasining barqaror rivojlanishini ta‘minlashning yagona yo‘lidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jadallashib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda qishloq xo‘jaligini bilim va innovasiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirishning innovasion yo‘liga jadal o‘tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘ini zamon talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texnik-texnologik asosda rivojlantirish lozim. Aks holda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishdan ortda qoladi va o‘zining raqobatbardoshligini ta‘minlay olmaydi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” qabul qilindi va unda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, tarmoqda davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, agrar sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikasiya qilish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi[10].

Hozirgi kunga qadar qishloq xo‘jaligining rivojlanishi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Chunki, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, nafaqat qishloq aholisi, balki mamlakatimiz aholisining moddiy farovonligini oshirish bebaho boyligimiz bo‘lgan yerimizning unumdorligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan bilim va innovasiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish faoliyatining samaradorligiga bog‘liq. Bilim va innovasiyalarni o‘zlashtirish natijasida qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish bazasi texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan yangilanib boradi. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekistonning jahon bozoriga integrasiyasini kuchaytiradi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining bozorda egallagan o‘rni mustahkamligi ularning ishlab chiqargan mahsulotlari raqobatbardoshligi hamda raqobatlasha olish imkoniyatlari bilan o‘lchanadi. Raqobatbardoshlik bozorda taklif etilayotgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. Mahsulotning iste‘mol va qiymat ko‘rsatkichlari yig‘indisi unga tijorat muvaffaqiyatini ta‘minlagan taqdirdagina u raqobatbardosh hisoblanadi.


Raqobatbardosh mahsulot – o‘zining sifat va ijtimoiy-iqtisodiy belgilari bilan xuddi shunday boshqa mahsulotdan manfaatli tarzda ajralib turuvchi tovardir.

Bugungi kunda jahon oziq-ovqat bozorlariga o‘z mahsulotlarini eksport qiluvchi tovar ishlab chiqaruvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini baholay olish va to‘g‘ri aniqlashdir.

Raqobat muammosi bugungi kunda eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Chunki ichki va tashqi bozorlarda raqobat muhiti kundan-kunga kuchayib, raqobatlashish chegarasi firmalararo raqobatdan tarmoq, mamlakatlar va hududlar doirasigacha kengayib ketdi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish bo‘yicha hozirgi sharoitida undagi innovatsion jarayonlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan yetarli darajada o‘rganib chiqilmaganligicha qolmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda oziq-ovqat mahsulotlari raqobatbardoshligini aniqlash uslubiyati va ko‘rsatkichlari tizimini yoritishda yagona yondashuv mavjud emas. Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida biz mahsulotlar raqobatbardoshligini aniqlashni quyidagi bosqichlar bo‘yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlar raqobatbardoshligini aniqlash bosqichlari¹

¹ B.T. Salimov., M.S. Yusupov., A.S. Yusupov. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirish omillari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2014


Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda raqobatbardoshlikni ta‘minlashning eng asosiy omillaridan biri – mahsulotlarning bozordagi raqobatbardoshlik ustunligidan foydalanishdir. Raqobat ustunligini ta‘minlashda ikkita yondashuv mavjud:

Birinchi yondashuv – ishlab chiqarishda masshtab samarasidan foydalanish va eng yaxshi texnologiyalarni qo‘llash orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, demak raqobatchilarga nisbatan mahsulot narxini arzonlashtirish orqali raqobat ustunligini ta‘minlash.

Ikkinchi yondashuv – xaridor uchun mahsulotning nafliligi va qadr qimmatini oshirish (iste‘mol xususiyatlari, foydaliligi, sifati, dizayni, qadoqlanishi, sotishdan oldingi va keyingi servis, kafolat berish va boshqalar) orqali uning ehtiyojlarini maksimal qondirishga intilish orqali raqobat ustunligiga erishish.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlariga nisbatan bu yuqori sifatli, ekologik xavfsiz va betakror ta‘m xususiyatlariga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tabaqalashtirish, saqlash, iste‘molchilar uchun qulay tarzda qadoqlash va yetkazib berish (kerak bo‘lsa uylariga) masalalarini o‘z ichiga oladi.

Fikrimizcha, oziq-ovqat mahsulotlari raqobatbardoshligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga quyidagi omillarni kiritish maqsadga muvofiq (2 rasm).



2-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlar tizimi²

O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarining jahon agrar va oziq-ovqat bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun tovar ishlab chiqaruvchilarimiz o‘zlarining jahon bozorlaridagi raqobat strategiyalarini aniq belgilab olishlari lozim. Buning uchun eksportga chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon oziq-ovqat bozorlaridagi analogik mahsulotlardan raqobat ustunligini ta‘minlash va shu orqali bozorlarda o‘z mavqeini mustahkamlash mumkin.

Qishloq xo‘jaligining innovasion rivojlanish muammolari O‘zbekiston uchun alohida dolzarflik kasb etadi, chunki faqatgina yangi resurstejamkor, ilg‘or texnologiyalardan keng

va samarali foydalangan holda innovasion rivojlanish atrof-muhitni saqlab qolishni hisobga olib qishloq xo‘jaligining iqtisodiyot barqarorligini jadal sur‘atlarda o‘shini ta‘minlaydi.

Xulosa va takliflar

Qishloq xo‘jaligini innovasion rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligi korxonalarini raqobatli ustunliklari shakllantiriladi, eng muhimi, moslashuvchanlik va bozordagi barcha o‘zgarishlarga tezda javob berish imkoniyatlari oshib boradi:

➤ qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida zamonaviy texnologiyalarning turli variantlarini taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, joriy va investitsiyaviy xarajatlarni kamayish imkonini beradi;

➤ tannarxi ancha past bo‘lgan mahsulotni ishlab chiqarish va narxlarning bir xil darajasida har bir ekin bo‘yicha bir gektar yerdan ko‘proq daromadlar olish imkonini beradi;

➤ qishloq xo‘jaligida innovasion texnologiyalarni o‘zgartirish orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshishiga olib keladi;

➤ yangi resursni tejavchi texnologiyalarga o‘tishda qishloq xo‘jalik korxonalarining texnologik tizimida bilimlardan samarali foydalanish;

➤ qishloq xo‘jaligi korxonalarida texnologik va tashkiliy-iqtisodiy innovasiyalarni joriy etishning jarayonli algoritmlarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari va raqobatbardoshligini oshirish qishloq xo‘jaligining barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishi hamda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovasiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-sonli Farmoni

3. Портер М. Конкуренция. Пер. с англ. – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2005.

4. Pardayev M.Q., Pardayev O.M. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishda innovasiyalardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish //Innovasion rivojlanish asosida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash: muammolari, yechimlari va istiqbollari. – 2015, 22 b.

5. R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva, Iqtisodiy o‘shish - (darslik) «Intellect» nashriyoti, 2022. –243 bet.

6. Xushmatov N., Fayzullayeva T. “Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish asoslari” // Ekonomika i klass sobstvennikov. – Toshkent, 2004. №1. –46 b.

7. Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, - 2004. – 30 b.

8. Choriyev Q.A. Bozor infratuzilmasini shakllantirish – iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirish garovi //Bozor islohotlari chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va qishloqda infratuzilmalarni rivojlantirish: respublika ilmiy – amaliy seminar ma‘ruzalar to‘plami. – Toshkent: O‘zBIITI, 1998. – B.15.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash majlisidagi nutqi